

## SAID AHMAD HIKOYALARIDA O‘XSHATISHLARNING PRAGMATIK TAHLILI

**Sarvinoz Orifjonova Bobirbek qizi,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasida qo‘llangan o‘xshatishlar pragmatolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘xshatishlarning badiiy matndagi obraz yaratish, qahramon ruhiy holatini ochib berish hamda presuppozitsion ma‘nolarni yuzaga chiqarishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, hikoyada uchraydigan turg‘un va erkin o‘xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari misollar asosida tahlil etilgan. Muallif o‘xshatishlar orqali matnning emotsional-ekspressiv ta‘sirchanligini kuchaytirishga erishgani ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘xshatish, pragmatolingvistika, presuppozitsiya, lingvopoetika, badiiy matn, Said Ahmad, “Qorako‘z Majnun”, turg‘un o‘xshatish, erkin o‘xshatish, idiostil.

**Abstract.** This article analyzes the similes used in Said Ahmad’s story “Qorako‘z Majnun” from a pragmatolinguistic perspective. The study highlights the role of similes in creating artistic imagery in literary texts, revealing the psychological state of characters, and expressing presuppositional meanings. In addition, the linguopoetic features of conventional and free similes found in the story are analyzed through examples. The article demonstrates that the author enhances the emotional and expressive impact of the text through the use of similes.

**Keywords:** simile, pragmatolinguistics, presupposition, linguopoetics, literary text, Said Ahmad, “Qorako‘z Majnun”, conventional simile, free simile, idiostyle.

**Аннотация.** В данной статье с прагматингвистической точки зрения анализируются сравнения, использованные в рассказе Саида Ахмада «Коракүз Мажнун». В исследовании освещается роль сравнений в создании художественного образа, раскрытии психологического состояния персонажей, а также в выражении presuppositional значений в художественном тексте. Кроме того, на основе примеров анализируются лингвопоэтические особенности устойчивых и свободных сравнений, встречающихся в рассказе. Показано, что автор посредством сравнений усиливает эмоционально-экспрессивное воздействие текста.

**Ключевые слова:** сравнение, прагматингвистика, presupпозиция, лингвопоэтика, художественный текст, Саид Ахмад, «Коракүз Мажнун», устойчивое сравнение, свободное сравнение, идиостиль.

**Kirish.** O‘xshatishlar til tizimining muhim mantiqiy va obrazli ifoda vositalaridan biri bo‘lib, ular qadimdan mantiq, poetika va ritorika doirasida o‘rganib kelinadi. Bu hodisa nafaqat tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, balki insonning borliqni anglashida ham muhim kognitiv vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotchilar ta‘kidlaganidek, inson tafakkurida qiyoslash va o‘xshatish jarayonlari dunyoni bilishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Inson predmet va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash orqali yangi bilim hosil qiladi (Mahmudov, 2011, 19–24).

O‘xshatish deganda ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, birining xususiyatlarini ikkinchisi orqali yanada aniq va ta‘sirchan ifodalash tushuniladi. (Sayfullayeva, 2009) Ushbu hodisa turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Gnoseologik yondashuvda o‘xshatish bilish jarayonining bir ko‘rinishi sifatida qaralsa, kognitiv yondashuvda tafakkur va til tuzilishini shakllantiruvchi model sifatida baholanadi. Lingvistik yondashuvda esa u muayyan til birliklari tizimi sifatida o‘rganiladi.

O'xshatishlar lingvokulturologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ular xalqning borliqni idrok etish usuli, milliy tafakkuri va madaniy qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli o'xshatishlar olamning lisoniy manzarasini yaratishda muhim vositalardan biri sanaladi. O'xshatish semantikasidagi baho munosabatlari esa milliy-madaniy konnotatsiyani ochib berishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'xshatishlarning qo'llanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariy asarlarida o'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalar haqida dastlabki ma'lumotlar uchraydi. (Qoshg'ariy, 1967 ) Shuningdek, tarixiy-badiiy manbalarda o'xshatishlardan poetik vosita sifatida keng foydalanilgan. Badiiy adabiyotda o'xshatishlar obraz yaratishning eng muhim vositalaridan biridir. Ular orqali muallif voqelikni obrazli tasvirlaydi, matnning ta'sirchanligini oshiradi hamda o'zining baholovchi munosabatini ifodalaydi. Ayrim hollarda o'xshatishlar satirik yoki kinoyaviy mazmun hosil qilishga ham xizmat qiladi. Shu sababli badiiy matnlardagi o'xshatishlar ko'pincha individual-mualliflik xususiyatiga ega bo'lib, ijodkorning uslubini namoyon etadi. Har bir yozuvchining qiyoslash va o'xshatish tizimi uning individual uslubi — idiosstilining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Idiosstil ijodkorning dunyoqarashi, estetik qarashlari va badiiy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Matnda qo'llangan til birliklari muallif mahorati natijasida poetik vositaga aylanadi va uning uslubiy individualligini belgilaydi. Shu jihatdan o'xshatishlar nafaqat badiiy-estetik vosita, balki til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ham ahamiyatlidir.

M. Yo'ldoshev o'xshatishlarni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlariga ajratadi. (Yo'ldoshev, 2007) An'anaviy o'xshatishlar xalq tilida uzoq davr davomida shakllanib, umumxalq nutqida faol qo'llanadi. Xususiy-muallif o'xshatishlari esa yozuvchining obrazli tafakkuri va individual kuzatuvlari asosida yuzaga keladi. Har ikki turdagi o'xshatishlar ham xalqning milliy tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiradi. Til taraqqiyoti jarayonida ayrim individual-muallif o'xshatishlari nutqda ko'p takrorlanishi natijasida asta-sekin barqaror birlikka aylanadi. Bunday o'xshatishlar vaqt o'tishi bilan til egalarining xotirasida mustahkam o'rnashib, turg'un shakl kasb etadi. Shu sababli turg'un o'xshatishlarning muayyan qismi dastlab muallif tomonidan yaratilgan individual obrazlar asosida yuzaga kelganini kuzatish mumkin. Ayni paytda an'anaviy o'xshatishlar yangi mualliflik o'xshatishlarini yaratishda tayanch vazifasini ham bajaradi. Bu masalaga E.V. Ogoltseva ham alohida e'tibor qaratgan.

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda o'xshatish tarkibi odatda to'rt asosiy unsur dan iborat ekanligi qayd etiladi: o'xshatish subyekti, etalon, o'xshatish belgisi hamda o'xshatish vositasi. Ushbu komponentlar birgalikda obrazli tasvirning shakllanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'xshatish etaloni xalq tilida keng qo'llanadigan va tanish obraz bo'lsa, qiyosning mazmuni yanada aniq va ta'sirchan ifodalanadi. Shu bilan birga, bunday etalonlarning individual ijod doirasida noodatiy shaklda qo'llanishi yangi va kutilmagan badiiy tasvirlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu kichik ilmiy ishimizda Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasidagi o‘xshatishlar pragmatik jihatdan o‘rganib chiqildi. Tadqiqot davomida hikoyadan o‘xshatish ishtirok etgan gaplar ajratib olinib, lingvopoetik va kontekstual tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Tahlil jarayonida o‘xshatishlarning struktur tarkibi, ya’ni subyekt, etalon, vosita va asosiy belgilari aniqlanib, ularning pragmatik vazifalari ochib berildi. Shuningdek, o‘xshatishlar tarkibidagi presuppozitsion ma’nolar ham tahlil qilindi.

**Natijalar.** *“Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi”* gapida qo‘llangan *“guldek umri xazon bo‘layotgan”* birikmasi o‘xshatish asosida yuzaga kelgan. Mazkur o‘xshatishda Qumrining umri gulga qiyoslanib, uning yoshligi va hayotidagi armonli holat ta’sirchan tarzda tasvirlangan. O‘xshatishning subyektini “Qumrining umri”, etaloni “gul”, vositasi “-dek” affiksi hisoblanadi. Ushbu o‘xshatish turg‘un o‘xshatishga kiradi. Chunki “guldek” obrazi o‘zbek tilida go‘zallik, yoshlik, nafislik kabi ma’nolarni ifodalovchi an’anaviy poetik etalon sifatida faol qo‘llanadi. Shuningdek, “xazon bo‘lmoq” birikmasi ham ko‘pincha umr, muhabbat yoki orzularning zavol topishini ifodalashda uchraydi. Shu sababli mazkur o‘xshatishda xalqona va barqaror obrazlilik ustunlik qiladi. Jumladan Qumrining “baxti ochilmayotgani” va “umri xazon bo‘layotgani” orqali uning hayotida og‘ir muammolar, armonli taqdir va amalga oshmagan orzular borligi anglashiladi. Bundan tashqari, “shu farishtaginaning yo‘lini och” ifodasi presuppozitsiya sifatida Qumrining pokiza, beg‘ubor va yaxshilikka loyiq qiz ekanligini bildiradi. Muallif aynan shu yashirin ma’nolar orqali qahramonga nisbatan achinish va hamdardlik hissini kuchaytirishga erishgan.

*“Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi”* gapida bir nechta obrazli o‘xshatishlar qo‘llangan bo‘lib, ular tasvirning badiiy ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Birinchi o‘xshatish *“qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi”* birikmasidir. Bu yerda varrakning sinib, yemirilib qolgan qamish qismlari skeletga qiyoslangan. O‘xshatishning subyektini “varrakning qamish qovurg‘alari”, etaloni “skelet”, vositasi “-dek” affiksidan iborat. Mazkur o‘xshatish erkin o‘xshatish hisoblanadi. Chunki “skeletdek” obrazi individual tasvir asosida yuzaga kelgan bo‘lib, unda muallifning kuzatuvchanligi va obrazli tafakkuri namoyon bo‘ladi. Ikkinchi o‘xshatish *“latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi”* jumlasida kuzatiladi. Bu o‘xshatishda varrakning uzun dumi ilon harakatiga qiyoslangan. O‘xshatishning subyektini “latta dum”, etaloni “ilon”, vositasi “-dek” affiksi, asosi esa egilib-buralib harakatlanish belgisidir. Ushbu o‘xshatish ham erkin o‘xshatish turiga kiradi. Sababi muallif shamolda hilpirayotgan latta harakatini ilonning to‘lg‘anishiga qiyoslash orqali noodatiy va jonli tasvir yaratgan. Gap tarkibida presuppozitsion ma’no ham mavjud. “Qurigan shox”, “skeletdek”, “ilondek to‘lg‘onadi” kabi birliklar orqali huvillagan va ma’yus muhit tasviri

anglashiladi. Varrakning daraxtga ilinib qolgan holati uning uzoq vaqtdan beri qarovsiz ekanligini presuppozitsiya sifatida ifodalaydi. Muallif ana shu yashirin ma'nolar yordamida tabiat manzarasiga g'amgin va xarob kayfiyatni singdirgan.

*“Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.”* Ushbu jumlada “ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlar” ifodasi orqali o'xshatish yuzaga kelgan. Unda armonning og'irligi tog' obraziga qiyoslanib, qahramonning uzoq yillik ruhiy iztirobi ta'sirchan tarzda ifodalangan. O'xshatishning subyekti “armonlar”, etaloni “tog'”, vositasi “-dek” affiksi, asosi esa og'irlik va bosim belgisidan iborat. Ushbu o'xshatish turg'un o'xshatish xarakteriga ega. Chunki o'zbek tilida “tog'dek dard”, “tog'dek g'am”, “tog'dek bosmoq” kabi birikmalar ruhiy yuk va iztirobnini ifodalovchi an'anaviy poetik vosita sifatida keng qo'llanadi. Muallif ham shu xalqona obraz orqali qahramonning ichki kechinmalarini yanada kuchliroq ochib bergan. Jumla tarkibida tag ma'no ham mavjud. “Yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlar” hamda “tog'dek bosib yotgan armonlar” birliklari Saodat aya uzoq vaqt davomida ruhiy azob va armon bilan yashaganini anglatadi. “Olamshumul bir yangilik” ifodasi esa ushbu xabar qahramon hayotida keskin o'zgarish yasashi va uning ruhiy yengillikka erishishiga sabab bo'lishini yashirin tarzda bildiradi.

*“Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.”* Asardagi bu jumlada esa “badanidan chayon o'rmalagandek seskandi” ifodasi orqali o'xshatish hosil qilingan. Ushbu o'xshatishda qahramonning kuchli qo'rquv va jirkanish holati chayonning badan ustida o'rmalashi bilan qiyoslangan. O'xshatishning subyekti “kampirning ruhiy va jismoniy holati”, etaloni “chayon”, vositasi “-dek” affiksi, asosi esa vahima, qo'rquv va bezovtalik belgilaridan iborat. O'xshatish erkin o'xshatish hisoblanadi. Chunki “chayon o'rmalagandek” tasviri individual obrazlilik asosida shakllangan bo'lib, unda muallifning badiiy tasavvuri va kuchli emotsional ifoda usuli namoyon bo'ladi. Chayon obrazi o'zbek badiiy tafakkurida xavf, zaharlilik va qo'rquv ramzi sifatida qo'llanadi. Shu sababli mazkur o'xshatish qahramonning ichki kechinmasini yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Parchada presuppozitsion ma'no “seskandi” va “o'zini orqaga tashladi” birliklari orqali berilib, kampir kutilmagan, qo'rqinchli yoki yoqimsiz holatga duch kelgani anglatilmoqda. “Chayon” obrazi esa yashirin ma'no sifatida xavf va tahdidni ifodalab, qahramonning ruhiy holatini chuqurroq ochib beradi. Muallif shu vosita orqali qahramonning keskin psixologik holatini obrazli tarzda yoritgan.

**Xulosa.** Ko'rish mumkinki, Said Ahmadning “Qorako'z Majnun” hikoyasida qo'llangan o'xshatishlar asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Tadqiqot davomida o'xshatishlarning nafaqat obraz yaratish, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari va muallifning baholovchi munosabatini ifodalashdagi o'rni ham aniqlandi. Hikoyada turg'un va erkin o'xshatishlarning uyg'un holda qo'llanishi matnning emotsional-ekspressiv

bo‘yoqdorligini kuchaytirgan. Pragmalingvistik tahlil natijasida o‘xshatishlar tarkibida yashirin presuppozitsion ma’nolar mavjudligi kuzatildi. Ayniqsa, muallif tomonidan tanlangan obrazlar orqali qahramonlarning ruhiy holati, voqelikning dramatikligi hamda milliy-madaniy qarashlar chuqur ifodalangan. Shu jihatdan Said Ahmad o‘xshatishlardan individual uslub — idiosstilning muhim elementi sifatida samarali foydalangan. Demak, badiiy matnda o‘xshatishlar nafaqat tasviriy vosita, balki pragmatik va lingvopoetik ma’no hosil qiluvchi muhim birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N. O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2011. – №3.
2. Mahmudov N. O‘xshatishlar va milliy nigoh: Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘atit turk. – Toshkent, 1967.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
6. Said Ahmad. Qorako‘z Majnun: Hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

